

**SABZAVOT, POLIZ EKINLARI VA KARTOSHKACHILIK ILMIY-  
TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.05/30.09.2022.Qx.152.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SABZAVOT, POLIZ EKINLARI VA KARTOSHKACHILIK ILMIY-  
TADQIQOT INSTITUTI**

**SAIDOVA GULSHODA ANVAR QIZI**

**POMIDORNI MOSLANUVCHAN NAVLARINI TANLASH, O‘STIRISH  
TEXNOLOGIYASINING ASOSIY ELEMENTLARINI ISHLAB CHIQISH  
(Buxoro viloyati kuchsiz sho‘rlangan tuproqlar sharoitida)**

**06.01.06 – Sabzavotchilik**

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiya avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по сельско хозяйственным наукам**

**Sontent of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on agricultural sciences**

**Saidova Gulshoda Anvar qizi**

Pomidorni moslanuvchan navlarini tanlash, o‘stirish texnologiyasining asosiy elementlarini ishlab chiqish (Buxoro viloyati kuchsiz sho‘rlangan tuproqlar sharoitida).....3

**Саидова Гулшода Анвар қизи**

Подбор адаптивных сортов томата, разработке их основных элементов технологии возделывания (в условиях слабозасоленных почв Бухарской области).....21

**Saidova Gulshoda Anvar kizi**

The selection of adaptive varieties of tomato, development of their main elements of cultivation technology (in the conditions of slightly saline soils of the Bukhara region) .....41

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Spisok opublicovannix rabot  
List of published works.....45

**SABZAVOT, POLIZ EKINLARI VA KARTOSHKACHILIK ILMIY-  
TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.05/30.09.2022.Qx.152.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SABZAVOT, POLIZ EKINLARI VA KARTOSHKACHILIK ILMIY-  
TADQIQOT INSTITUTI**

**SAIDOVA GULSHODA ANVAR QIZI**

**POMIDORNI MOSLANUVCHAN NAVLARINI TANLASH, O‘STIRISH  
TEXNOLOGIYASINING ASOSIY ELEMENTLARINI ISHLAB CHIQISH  
(Buxoro viloyati kuchsiz sho‘rlangan tuproqlar sharoitida)**

**06.01.06 – Sabzavotchilik**

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Qx1532 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz tilida (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.sabzavotilm.uz](http://www.sabzavotilm.uz)) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Ostonaqulov Toshtemir Eshimovich**  
Qishloq xo'jalik fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Shokirov Alisher Juraboyevich**  
Qishloq xo'jaligi fanlar doktori, dotsent

**Dusmuratova Saodat Ismailovna**  
Qishloq xo'jalik fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.05/30.09.2022.Qx.152.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "\_\_\_" \_\_\_\_, soat\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111106, Toshkent viloyati, Toshkent tumani, Ko'ksaroy a/b SPEvaKITI. Tel: (+99871) 226-85-03; faks:(+99871) 226-85-03; e-mail: [savzavot\\_info@umail.uz](mailto:savzavot_info@umail.uz)).

Dissertatsiya bilan Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin \_\_\_\_\_-raqami bilan ro'yxatga olingan (Manzil: 111106, Toshkent viloyati, Toshkent tumani, Ko'ksaroy a/b SPEvaKITI. Tel:(+99871) 226-85-03;

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_kuni tarqatildi.  
(2025-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_dagi \_\_\_-raqamli reyestr bayonnomasi).

**R.A.Nizomov**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi, q.x.f.d., professor

**F.F.Rasulov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, qishloq xo'jaligi bo'yicha falsafa fanlari doktori, k.i.x.

**A.J.Shokirov**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, q.x.f.d., dotsent

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiyasi mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Bugungi kunda “dunyo bo‘yicha pomidor etishtirish maydoni 5,2 mln. gektardan ortiqni tashkil etib, yillik hosil hajmi 2021–2022 yillarda 189 million tonnadan oshdi. Yetakchi ishlab chiqaruvchi davlatlar qatoriga Xitoy (65,9 mln. tonna), Hindiston (21,2 mln. tonna), AQSH (10,6 mln. tonna), Turkiya (13,2 mln. tonna), Misr (6,7 mln. tonna), Italiya (6,3 mln. tonna), Eron (5,2 mln. tonna) va Ispaniya (4,7 mln. tonna) kiradi (FAO, 2022)”<sup>1</sup>. Uning hosili insoniyatning sevimli oziq-ovqati, konserva sanoatining esa xom-ashyosi bo‘lib, qayta ishlanib tomat-pasta, pyure va sharbat tayyorlanadi. Hozirga qadar pomidorning 1000 dan ortiq turli-tuman navlari yaratilgan bo‘lib, ular ochiq va himoyalangan maydonlarda o‘ziga xos turli agrotexnologiyalarda etishtirilmoqda. Shu bois, bugungi kunda pomidorni turli tuproq-iqlimga moslanuvchan navlarini tanlash, maxsulot etishtirish texnologiyasi elementlarini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

Hozirgi kunda dunyo aholisi sonining ko‘payishi, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash zarurati va ekologik jihatdan toza, yuqori sifatli mahsulotlarga ehtiyojning ortishi bu sohada ilmiy-tadqiqot ishlarining ahamiyatini yanada oshirmoqda. Xususan, dunyo bo‘yicha eng ko‘p pomidor etishtiriladigan va iste‘mol qilinadigan - Xitoy, Hindiston, AQSH, Turkiya, Misr, Italiya, Eron, Ispaniya, Meksika, Braziliyada pomidorning turli iqlim sharoitlariga mos, yuqori hosildor va moslanuvchan navlarini yaratish va joriy etish dolzarb masalaga aylangan. Pomidorning moslanuvchan navlarini tanlash va etishtirish texnologiyasini ishlab chiqish orqali turli agroiklim sharoitlarida barqaror hosil olish, kasallik va zararkunandalarga chidamli navlarni joriy etish hamda intensiv texnologiyalarni qo‘llash imkoniyati yaratiladi. Bu esa nafaqat hosildorlikni oshirish, balki ekin maydonlaridan samarali foydalanish va ekologik barqarorlikni ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda dehqonchilik qilinadigan sug‘oriladigan erlarning 2 mln. gektari yoki 46 foizdan ziyodi turli darajada sho‘rlangan, bu ko‘rsatkich Buxoro viloyatida 275,6 ming gektarni yoki sug‘oriladigan maydonlarning 86 foizini tashkil etib, o‘ziga xos meliorativ, agrotexnik tadbirlar qo‘llashni hamda ekinning stress noqulay tuproq-iqlim sharoitlariga moslashgan nav va duragaylarini yangi innavatsion texnologiyalar asosida etishtirishni talab qiladi. Muayyan sharoitda pomidor ekini hosildorligini oshirish ko‘p jihatdan yuqori mahsuldor, sho‘rga, kasallik, zararkunanda va boshqa ekstremal omillarga chidamli navlarini tanlashga, ularni o‘stirish agrotexnologiyasining asosiy elementlari tuproqni qulay mulchalash turi, ko‘chat o‘tkazish muddati, sug‘orish tartibi, o‘g‘itlash meyorini hamda tup qalinligini ishlab chiqishga keng joriy etish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Ushbu dissertatsiya ishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 5-apreldagi PQ-113-son «2023-yilda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab

---

<sup>1</sup> <https://www.fao.org/statistics/data-collection/en>

chiqarish, qayta ishlashni kengaytirish va qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»<sup>2</sup>gi Qarori va 2024-yil 16-fevraldagi PF-36-son «Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»<sup>3</sup>gi Farmoni, 2024-yil 24-apreldagi PQ-227-son “Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”<sup>4</sup>gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Pomidor ekini nav va duragaylari introduksiyasi, ularni ochiq va himoyalangan maydonlarda baholash, ko‘chat hamda urug‘idan o‘stirish agrotexnologiyasini ishlab chiqish borasida mamlakatimizda N.N.Balashov, V.I.Zuev, B.J.Azimov, YE.V.Yermolova, X.CH.Bo‘riyev, M.X.Aramov, R.A.Nizomov, S.I.Dusmuratova, T.E.Ostonaqulov, J.N.Nadjiyev, CH.S.Begimqulov, xorijda esa W.A.N.G.Yuqing, Y.Zhang, G.A.O. Zhipeng & Y.A.N.G.Wencai (Xitoy), B.T.Anang, A.Z.Zulkarnain, S.Yusif (AQSH), N.Fodor, P.Csatho, T.Arendas, L.Radimsky, T.Nemeth (Vengriya), M.Thangam, Thamburaj S. (Hindiston), A.O.Adekiya, A.O.Agbede (Nigeriya), D.D.Brejnev, V.F.Pivovarov, Y.I.Avdeyev (Rossiya) kabilar tomonidan keng qamrovli tadqiqotlar olib borilgan va muayyan natijalarga erishilgan. Lekin, sho‘rlangan tuproqlar sharoitida pomidor tezpishar, o‘rtatezpishar va o‘rtapishar nav va duragaylar kolleksiyasini har tomonlama baholab, istiqbolli moslanuvchanlarini ajratish, ularni o‘stirish agrotexnologiyasi-ning asosiy elementlari – maqbul sug‘orish tartibi, o‘g‘itlash meyorlari va qulay ekish sxemalarini belgilash borasida tadqiqotlar olib borilmagan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti Buxoro ilmiy-tajriba stansiyasi ilmiy tadqiqotlari ish rejasiga mos bo‘lib, “Global iqlim o‘zgarishi, suv tanqisligi va sho‘rlangan tuproqlar sharoitida sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkadan barqaror, yuqori hosil olishni ta‘minlovchi nav va duragaylarni yaratish, tanlash hamda etishtirish agro-texnologiyasini takomillashtirish” mavzusi doirasida bajarilgan (2022-2024 yy.).

**Tadqiqotning maqsadi.** Buxoro viloyati kuchsiz sho‘rlangan o‘tloqi allyuvial tuproqlar sharoitida pomidor tezpishar, o‘rtatezpishar va o‘rtapishar nav namunalarni tanlash, ularni turli sug‘orish tartibi va o‘g‘itlash meyorlari hamda ekish sxemalarida o‘stirish agrotexnologiyasini takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

---

<sup>2</sup> <https://lex.uz/docs/6424449>

<sup>3</sup> <https://lex.uz/docs/6802687>

<sup>4</sup> <https://www.lex.uz/docs/6977169>

pomidor mavjud tezpishar, o'rtatezpishar va o'rtapishar nav va duragaylar to'plamini viloyatning kuchsiz sho'rlangan o'tloqi allyuvial tuproqlari sharoitida o'sishi, rivojlanishi, barg sathi hosil bo'lishi, paykalning fotosintetik imkoniyati, hosil shakllanishi, mahsuldorlik ko'rsatkichlari, terimlar bo'yicha umumiy va tovar hosildorligi, moslanuvchanlik koeffitsiyenti va biokimyoviy tarkibiga qarab kompleks baholash;

istiqbolli, moslanuvchan pomidor nav va duragaylarini turli sug'orish tartibi va o'g'itlash me'yorlarida o'stirilganda o'sishi, rivojlanishi, tupning shakllanishi, mahsuldorligi, hosil pishish darajasi, umumiy va tovar hosildorlikka ta'sirini o'rganish

pomidor moslanuvchan nav va duragaylarini turli tup qalinliklarida o'stirib, o'sishi, rivojlanishi, fotosintetik faolligi, mahsuldorlik ko'rsatkichlari va hosildorligini aniqlash asosida maqbul samarali tup qalinligini belgilash;

istiqbolli pomidor navlarini qulay sug'orish tartibi, o'g'itlash me'yorlari va tup qalinligida o'stirishning iqtisodiy samaradorligini hisoblash va amaliyotga tavsiyalar yaratish va joriy etishdan iborat.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida kuchsiz sho'rlangan tuproqlar sharoitida tajribada pomidorning Davlat reyestriga kiritilgan va turli davlatlardan keltirilgan hamda o'zimizda yaratilgan 18 ta nav va duragaylari olindi. Nav namunalarining morfologik xususiyatlari, mahsuldorlik elementlari, fotosentetik potentsiali, hosildorlik va korrelyatsion belgilari hisoblandi.

**Tadqiqotning predmeti** bo'lib, kuchsiz sho'rlangan tuproqlar sharoitida 2 ta sug'orish tartibi cheklangan dala nam sig'imiga nisbatan sug'orish oldi tuproq namligi 65-75-75 % va 75-85-85 %, har bir sug'orish tartibida 5 ta o'g'itlash me'yorlari hamda 3 ta ekish sxemasi (90×30 sm (standart), 90×25 sm va 90×20 sm) hisoblandi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqotlar dala va laboratoriya sharoitida «Методика Государственного сортоиспытания сельскохозяйственных культур» (1974; 2019), «Методика опытного дела в овощеводстве и бахчеводстве» V.F.Belik (1992), «Методика полевого опыта в овощеводстве» S.I.Litvinov (2011) kabi uslubiy qo'llanmalar asosida olib borildi, ma'lumotlarning statistik tahlili Microsoft Excel dasturi yordamida dispersion uslub B.A.Dospexov (1985) hamda B.J.Azimov, B.B.Azimov (2002; 2006) bo'yicha amalga oshirildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ilk bor Buxoro viloyati kuchsiz sho'rlangan allyuvial o'tloqi tuproqlari sharoitida pomidor tezpishar, o'rtatezpishar va o'rtapishar 18 ta nav va duragaylari to'plami har tomonlama baholanib, muayyan sharoitga moslanuvchan istiqbollilari ajratilgan;

yuqori hosildorlik (40,8-109,8 t/ga) va moslanuvchanlik koeffitsiyenti (0,92-1,49) Lojain F<sub>1</sub>, Tomsk F<sub>1</sub>, Bobcat F<sub>1</sub>, Seraj F<sub>1</sub>, Red stone, Rio-grande, Wolverine F<sub>1</sub>, Pink trind F<sub>1</sub> nav va duragaylarda aniqlangan;

kuchsiz sho'rlangan sug'oriladigan tuproqlar sharoitida pomidorning moslanuvchan Mustaqillik-28, Red stone navlarini 90×25 sm ekish tartibida o'stirish orqali 35-45 tonna, Bobcat F<sub>1</sub>, Lojain F<sub>1</sub> duragaylaridan esa 61,1-88,4 tonnagacha hosil olish mumkinligi isbotlangan;

pomidorni ajratilgan moslanuvchan nav va duragaylaridan sug'orish tartibini 75-85-85% da ushlab, organomineral o'g'itlarni 20 t/ga go'ng+N<sub>200</sub>P<sub>160</sub>K<sub>100</sub> t/kg meyorda birgalikda qo'llash orqali yuqori barqaror (48,6-88,1 t/ga) yaxshi biokimyoviy tarkibli va sifatli hosil olish, 1 m<sup>3</sup> sug'orish uchun sarflangan suvga hosil chiqimi eng yuqori (5,7-9,7 kg) yoki 1 s hosilga sarflangan suv eng kam (10,2-17,5 m<sup>3</sup>) ni tashkil qilgani aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

ilk bor kuchsiz sho'rlangan o'tloqi allyuvial tuproqlar sharoitida pomidorning 18 ta tezpishar, o'rtatezpishar va o'rtapishar nav va duragaylar to'plami qimmatli morfologik, biologik va xo'jalik belgi-xususiyatlari tahlil qilinib, muayyan sharoitga moslanuvchan (moslanuvchanlik koeffitsiyenti 1,16-1,49) istiqbolli nav va duragaylar-Tomsk F<sub>1</sub>, Bobcat F<sub>1</sub>, Seraj F<sub>1</sub>, Lojain F<sub>1</sub>, Red Stone, Wolverine F<sub>1</sub>, Pink trind F<sub>1</sub>, Rio-grande yuqori urug' unuvchanligi (94,6-97,5%), sifatli ko'chat chiqimi (90,3-96,8%), o'suv davri tezpisharlarda 50-57, o'rtatezpisharlarda 59-64, o'rtapisharlarda 69-71 kunni tashkil etib, o'simlik jadal rivojlanib, gullash davridan boshlab baland bo'yli (46,0-60,2 sm), shoxlangan (4,5-5,8 dona yon shoxli), serbargli (20,7-25,4 dona) yoki barg sathili (0,47-0,57 m<sup>2</sup>), baquvvat ildiz tizimli (126-144 g) va palakli (473-574 g), yuqori fotosintetik potensialga (2496,4-2965,8 ming m<sup>2</sup> x kun) va mahsuldorlikka (1034,1-2579,5 g) ega bo'lib, har gekardan 40,8-109,8 t/ga va ziyod tovar hosil berishi, shundan 1, 2 va 3-terimlar salmog'i 71,8-85,9% bo'lib, yuqori biokimyoviy tarkibi va sifati bo'yicha ajratilgan;

tanlangan moslanuvchan pomidor Tomsk F<sub>1</sub>, Bobcat F<sub>1</sub>, Lojain F<sub>1</sub>, Red Stone nav va duragaylari turli sug'orish tartibi va o'g'itlash meyorlarida o'stirilganda, o'suv davrining 2-10 kunga uzayishi, o'simlikning baland bo'yli (84,8-91,3 sm), baquvvat palakli (458-571 g), ildiz tizimli (124-141 g), har geklarda gullash-mevalash davridan boshlab navlar bo'yicha 29,8-33,3, mevalash-pishish davrida esa 31,5-35,1 ming m<sup>2</sup>, paykalning fotosintetik potentsiali o'suv davrida eng yuqori (2878,8-3942,4 ming m<sup>2</sup> x kun) bo'lib, eng ko'p bargdagi xlorofill miqdori (412,4-537,4 mg/100 g) va fotosintez sof mahsuldorligi (pishish davrida 5,2-7,0 g/m<sup>2</sup> sutkada), natijada eng yuqori mahsuldorlik (1105,3-2042,4 g) va hosildorlik (48,6-88,1 t/ga), ya'ni 1m<sup>3</sup> sug'orish uchun sarflangan suvga eng yuqori (5,7-9,7 kg) yoki 1 s hosilga sarflangan suv eng kam (10,2-17,5 m<sup>3</sup>) ni tashkil etgan sug'orish tartibi tuproqning CHDNS iga nisbatan 75-85-85% bo'lib, o'g'itlar 20 t/ga go'ng + N<sub>200</sub>P<sub>160</sub>K<sub>100</sub> kg/ga meyorda birgalikda berilganda aniqlangan;

kuchsiz sho'rlangan tuproqlar sharoitida ajratilgan pomidorning standart Volgogradskiy 5/95, Mustaqillik-28, Red Stone navlari, Bobcat F<sub>1</sub>, Lojain F<sub>1</sub> duragaylarini turli tup qalinliklarida o'stirilganda, ko'chatlarning tutuvchanligi 97,4-99,5% ni tashkil etishi, ya'ni 90×30 sm ekish sxemada 0,8-1,0 % ziyod bo'lishi, o'suv davri 4-7 kungacha uzayishi, gullash davrida 16,7-27,5, mevalash davridan boshlab 28,6-40,0 ming m<sup>2</sup> barg sathi shakllanganligi, eng yuqori fotosintetik potensial moslanuvchan nav va duragaylarda (2246,9-3058,6 ming m<sup>2</sup>/ga x kun) ekish 90×25 sm sxemada, geklarda 44,4 ming tup qalinlikda o'stirilganda olinib, shunda pomidor Mustaqillik-28, Red Stone navlaridan 35-45 tonna, Bobcat F<sub>1</sub>, Lojain F<sub>1</sub> duragaylaridan esa 61,1-88,4 tonna tovar hosildorlikka erishildi. Umumiy hosilning 71,2-75,6% ini 1, 2 va 3-terimlar bilan 20 iyulgacha

yig'ishtirib olish imkonini berdi;

ajratilgan moslanuvchan pomidor nav va duragaylarini (Mustaqillik-28, Bobcat F<sub>1</sub>, Lojain F<sub>1</sub>, Red Stone kabilarni) maqbul sug'orish tartibi (75-85-85%), o'g'itlash meyorlari (20 t/ga go'ng + N<sub>200</sub>P<sub>160</sub>K<sub>100</sub> kg/ga meyorda birgalikda qo'llanilganda) va tup qalinliklarida (90×25 sm sxemada gektarda 44,4 ming tup qalinlikda) o'stirish iqtisodiy jihatdan samarali ekanligi ishlab chiqarish sinovi tajribalarida isbotlanib, har gektardan 16,0-79,4 mln.so'm sof daromad hamda 38,1-167,7% rentabellikni ta'minlagani aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Dala tajribalari har yili O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi va Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi vakillarining raisligida Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan tuzilgan maxsus aprobatsiya komissiyasi, viloyat hokimligi hamda Buxoro Davlat Universiteti rahbarligida tashkil etilgan ishchi guruh tomonidan ijobiy baholanganligi, vazirlikning portalida har yili tadqiqot natijalari elon qilinib borilganligi, hisobotlar institutning ilmiy va uslubiy kengashlarida muhokama qilinganligi. Tajriba natijalarining xalqaro va Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda tinglanib, muhokama etilganligi hamda mahalliy va xorijiy nashrlarda chop etilganligi hamda amaliyotga joriy etilganligi natijalarning ishonchliligini ko'rsatadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Buxoro viloyati kuchsiz sho'rlangan sug'oriladigan allyuvial o'tloqi tuproqlari sharoitida pomidor nav va duragaylar to'plami o'sishi, rivojlanishi, tezpisharligi, barg sathi tupda va maydon birligida shakllanishi, paykalning fotosintetik potentsiali, palak, ildiz va mahsuldorlik ko'rsatkichlari, umumiy va terimlar bo'yicha hosildorligi va tovar hosil chiqimi hamda biokimyoviy tarkibi va sifati bo'yicha har tomonlama baholanib, muayyan sharoitga moslanuvchan istiqbollilari tanlanganligi va ularni turli sug'orish tartibi, o'g'itlash meyorlari va tup qalinligida o'sib rivojlanishi o'rganilganligi, o'stirish agrotexnologiyasining asosiy elementlari takomillashtirilib, ilmiy asoslanganligi bilan isbotlanadi.

Tadqiqot natijalarning amaliy ahamiyati esa, Buxoro viloyati kuchsiz sho'rlangan sug'oriladigan allyuvial o'tloqi tuproqlari sharoitida pomidor nav va duragaylar to'plami har tomonlama baholanib, moslanuvchan istiqbollilari (Tomsk F<sub>1</sub>, Bobcat F<sub>1</sub>, Seraj F<sub>1</sub>, Lojain F<sub>1</sub>, Red Stone, Rio-grande, Wolverine F<sub>1</sub>, Pink trind F<sub>1</sub>) ajratilganligi, ularni o'stirish agrotexnologiyasining asosiy tadbirlari, ya'ni maqbul sug'orish tartibining asosiy ko'rsatkichlari – sug'orish meyorlari, soni, sxemasi va oraliqlari, o'g'itlash meyorlari va qulay tup qalinligi belgilanganligi, ularni takomillashtirilgan agrotexnologiyasi yaratilganligi va tavsianoma ishlab chiqilib, joriy etilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Buxoro viloyatining kuchsiz sho'rlangan tuproqlar sharoitiga mos pomidor moslanuvchan nav va duragaylarini tanlash, ularni o'stirish agrotexnologiyasini ishlab chiqish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlari asosida:

Buxoro viloyatining kuchsiz sho‘rlangan o‘tloqi-allyuvial sharoitida qimmatli morfologik, biologik va xo‘jalik belgi-xususiyatlari bo‘yicha ajratib olingan pomidorning 18 nav va duragaylaridan istiqbolli Tomsk F1, Bobcat F1, Seraj F1, Lojain F1, Red Stone, Wolverine F1, Pink trind F1, Rio-grande nav va duragaylari viloyatning Jondor tumanidagi “Hamrayev Xalil Bozorovich” va “Obod Jo‘yzar” fermer xo‘jaliklarining jami 8,6 gektar maydonida joriy qilingan (Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 21-dekabr 05/06-03-425-son ma‘lumotnomasi). Natijada ushbu nav va duragaylardan gektariga 44,6-45,6 tonna, duragaylardan esa 39,1-109,8 tonna hosil olishga erishilgan;

pomidorning Tomsk F1, Bobcat F1, Lojain F1, Red Stone nav va duragaylari sug‘orish tartibi tuproqning ChDNSiga nisbatan 75-85-85% va organomineral o‘g‘itlar 20 t/ga go‘ng + N200P160K100 kg/ga me‘yorda qo‘llash taklif etilgan va Jondor tumanidagi “Xamrayev Xalil Bozorovich” va “Obod Jo‘yzar” fermer xo‘jaliklariga joriy qilingan. (Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 21-dekabr 05/06-03-425-son ma‘lumotnomasi). Natijada o‘suv davrining 2-10 kunga uzayishi hisobiga o‘simlikning baland bo‘yli (84,8-91,3 sm), baquvvat palakli (458-571 g), ildiz tizimli (124-141 g) bo‘lishiga, mos ravishda Red Stone navida 49,0 t/ga, Tomsk F1, Bobcat F1, Lojain F1 duragaylarda esa 64,7-89,9 t/ga hosil olishga erishilgan. Rentabellik 55,2-150,2% ni takshil etgan;

Buxoro viloyatining kuchsiz sho‘rlangan tuproqlar sharoitida ajratilgan pomidor nav va duragaylarini 90x25 sm sxemada (gektarda 44,4 ming tup qalinlikda) ekish Jondor tumanidagi “Xamrayev Xalil Bozorovich” va “Obod Jo‘yzar” fermer xo‘jaliklariga joriy etilgan (Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 21-dekabr 05/06-03-425-son ma‘lumotnomasi). Natijada pomidor nav va duragaylaridan 4,5-5,8 t/ga qo‘shimcha hosil olishga erishilgan;

“Buxoro viloyati kuchsiz sho‘rlangan erlariga moslanuvchan nav va duragaylarini tanlash va ularning qulay sug‘orish tartibi, o‘g‘itlash me‘yorlari va tup qalinligini belgilashga oid tavsiyalar” ishlab chiqilib tasdiqlangan va amaliyotga joriy etilgan (Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 21-dekabr 05/06-03-425-son ma‘lumotnomasi). Natijada ushbu tavsiyanoma nafaqat ilmiy-tadqiqot institutlari, Oliy ta‘lim muassasalari talabalari, magistrarlari, balki ilmiy izlanuvchilar, pomidor etishtiruvchi turli erdan foydalanuvchilarga muhim ilmiy-uslubiy qo‘llanma sifatida xizmat qilmoqda.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilingan. Dala tajribalari har yili Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi va Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan tuzilgan maxsus komissiya tomonidan aprobatsiyadan o‘tkazilib, ijobiy baholangan, yillik hisobotlar institutning ilmiy va uslubiy kengashlarida muhokama qilingan. Dissertatsiya ishi

institut kengaytirilgan ilmiy Kengashida tinglanib, muhokama etilib, himoyaga tavsiya qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy maqolalar chop etilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumlada 2 tasi xorijiy, respublika jurnallarida – 2 ta chop etilgan. Shuningdek xalqaro konferensiyalarda 3 ta va respublika konferensiyalarida 2 ta maqola, 1 ta tavsiyanoma nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, oltita bob, xulosa, ishlab chiqarishga tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, hajmi 120 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari yoritilgan, tadqiqotning obyekti va predmeti keltirilgan, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari va ularning ishonchliligi, tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati, ularni joriy etish, aprobatsiya va dissertatsiya doirasida chop etilgan maqolalar to'g'risida ma'lumotlar hamda uning hajmi va tarkibi bayon etilgan .

Dissertatsiyaning **“Sho'rlangan tuproqlarda pomidor nav va duragaylari, sug'orish tartibi, o'g'itlash meyorlari va ekish sxemalarining o'rganilganligi (adabiyotlar sharhi)”** deb nomlangan birinchi bobida mavzu bo'yicha xorijiy va mahalliy 197 ta ilmiy manbalar tahlil etilib, qayd etilgan kuchsiz sho'rlangan sug'oriladigan allyuvial o'tloqi tuproqlar sharoitida chetdan keltirilgan va o'zimizda yaratilgan nav va duragaylar to'plamini kompleks baholash, istiqbolli moslanuvchanlarini tanlash, ularni o'stirish texnologiyasini takomillashtirish borasida tadqiqotlar olib borish dolzarb masala bo'lib, ish oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarni bajarish bo'yicha maxsus dala va ishlab chiqarish tajribalari o'tkazish zarurligi qayd etilgan.

Ishning **«Tadqiqotlar joyi, tuproq-iqlim sharoitlari, obyekti, predmeti va usuli»** deb nomlangan ikkinchi bobida tajribalar o'tkazilgan joy, uning tuproq va iqlim sharoitlari, obyekti, yo'nalishlari hamda uslubi bayon etilgan.

Dala va ishlab chiqarish sinovi tajribalari 2022-2024 yillar davomida Buxoro viloyati Jondor tumani “Hamroyev Xalil Bozorovich” va “Obod Jo'yzar” fermer xo'jaliklari kuchsiz sho'rlangan sug'oriladigan o'tloqi allyuvial, mexanik tartibi o'rta qumoq tuproqlar ekanligi, tuproq suvli so'rim tahlili kuchsiz ishqoriyligi (pH=7,4-7,6) to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Tajriba dalasining tuproqlari haydalma (0-30 sm) va haydov osti (31-50 sm) qatlamlardan namunalar olinib tahlil qilinganda, yillar bo'yicha gumus miqdori 0,94-1,12 va 0,71-0,78; umumiy azot 0,094-0,099 va 0,082-0,085; umumiy fosfor 0,13-0,14 va 0,10-0,12; umumiy

kaliy 2,38-2,41 va 2,22-2,27 foiz, harakatchan fosfor 12,4-12,8 va 9,3-9,9; almashinuvchan kaliy 204-211 va 185-190 mg/kg ekanligi, ya'ni haydov qatlami harakatchan azot va fosfor bilan kam, almashinuvchi kaliy bilan o'rta ta'minlangani aniqlandi.

Tadqiqotlar o'tkazilgan 2024-yil yog'inganchilik ko'p bo'lib, yillik miqdori 182,4 mm, 2023 yilda 170,0 mm bo'lib, ko'p yillik ma'lumotlarga nisbatan 34,4-46,8 mm ko'p, 2022 yilda esa 101,4 mm tashkil etib 34,2 mm kam tushganligi, havoning nisbiy namligiga ham xuddi shunday qonuniyat kuzatilib, ko'p yillik bo'yicha 48,8, tajriba o'tkazilgan yillarda 46,0-50,3 % ni, havo harorati barcha yillarda ko'p yillikdan 0,2-0,3°C yuqori ekanligi to'g'risidagi ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, ushbu bobda tajribada pomidor nav va duragaylar etishtirish agrotexnologiyasi va texnologik xaritasi ham bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **“Kuchsiz sho'rlangan yerlarga pomidor nav va duragay-larini o'rganish”** deb nomlangan uchinchi bobida pomidor o'rganilgan nav va duragaylar urug'ining unuvchanligi, o'simlikning o'sish va rivojlanishi, barg sathi shakllanishi, fotosintetik faoliyati va potentsiali, tupning mahsuldorlik ko'rsatkichlari, terimlar bo'yicha hosildorlik va navlarning moslanuvchanlik koeffitsiyenti, hosilning biokimyoviy tarkibi va sifati, sho'rlangan erlarda pomidor nav va duragaylarini o'stirishning iqtisodiy samaradorligi batafsil bayon etilgan.

Olingan ma'lumotlarning ko'rsatishicha, o'rganilgan nav va duragaylar 1000 dona urug' massasi 2,06 dan 3,23 grammgacha o'zgarib, nisbatan mayda (2,06-2,34 g) urug'li bo'lib, Pink trind F<sub>1</sub>, BT1019 F<sub>1</sub>, H2274 F<sub>1</sub>, Terra cotta F<sub>1</sub>, Lojain F<sub>1</sub>, Tomsk F<sub>1</sub>, o'rta urug'li (2,51-2,96 g) – Rio-grande, Red stone, Vostok-36, Wolverine F<sub>1</sub>, Floradade, Seraj F<sub>1</sub>, Bobcat F<sub>1</sub>, Ogastin, yirik urug'li (3,0-3,23 g) – Mustaqillik-28, Volgogradskiy 5/95, Yusupov, Campbell nav va duragaylari hisoblandi.

O'suv davri tezpishar nav va duragaylarda 50-57, o'rtatezpisharlarda 59-64, o'rtapisharlarda 69-71 kuni tashkil etgani ma'lum bo'ldi. Gullash davridan boshlab eng baland bo'yli (49,3-60,2 sm), shoxlangan (4,5-5,8 dona), serbargli (20,7-25,4 dona), barg sathili (0,47-0,51 m<sup>2</sup>) o'simliklar Ogastin, Lojain F<sub>1</sub>, Tomsk F<sub>1</sub>, Bobcat F<sub>1</sub>, Seraj F<sub>1</sub>, Red stone, Wolverine F<sub>1</sub>, Pink trind F<sub>1</sub> nav va duragaylarida qayd etilib, ushbu ustunlik o'suv davri oxirigacha saqlangan.

Pomidor o'rganilgan nav va duragaylar to'plamida barg sathi tupda va maydon birligida hosil bo'lishi gullashdan mevalar pishishgacha bo'lgan davrgacha ortib borishi, keyingi davrda esa barg shakllanishi kamayishi kuzatildi. Maydon birligida eng yuqori barg sathi Tomsk F<sub>1</sub> (42,2 ming m<sup>2</sup>), Bobcat F<sub>1</sub>, Seraj F<sub>1</sub> (40,9 ming m<sup>2</sup>), Lojain F<sub>1</sub> (39,1 ming m<sup>2</sup>), Red stone (39,1 ming m<sup>2</sup>), Wolverine F<sub>1</sub> (37,3 ming m<sup>2</sup>), Pink trind F<sub>1</sub> (34,6 ming m<sup>2</sup>) nav va duragaylarda shakllangani ma'lum bo'ldi. Eng yuqori fotosintetik potentsial ushbu nav va duragaylari paykalida kuzatilib, 2496,4-2965,8 ming m<sup>2</sup>/ga x kuni tashkil etdi. Pomidor nav va duragaylari maydon birligida barg sathi shakllanishi va paykalning fotosintetik potentsiali orasidagi korrelyatsiya koeffitsiyenti  $r=0,869$  ( $R^2 = 0,7558$ ) ga teng bo'lib, yuqori darajaga yaqin bog'lanish qayd etildi.

Pomidor nav va duragaylar to'plami kuchsiz sho'rlangan tuproqlar sharoitida baholanganda baquvvat ildiz (126-144 g) va palak (473-574 g) shakllatirishi hamda mahsuldorlik ko'rsatkichlari (1034,1-2579,5 g) bo'yicha tezpisharlardan Lojain F<sub>1</sub>, Tomsk F<sub>1</sub>, Bobcat F<sub>1</sub>, Seraj F<sub>1</sub>; o'rtatezpisharlardan-Red stone; o'rtapisharlarda-Pink trind F<sub>1</sub> nav va duragaylari ajratildi.

Eng yuqori hosildorlik (40,8-109,8 t/ga) va moslanuvchanlik koeffitsiyenti (0,92-1,49) Lojain F<sub>1</sub>, Tomsk F<sub>1</sub>, Bobcat F<sub>1</sub>, Seraj F<sub>1</sub>, Red stone, Rio-grande, Wolverine F<sub>1</sub>, Pink trind F<sub>1</sub> ekanligi qayd etildi (1-jadval).

### 1-jadval


#### Kuchsiz sho'rlangan yerlarda pomidor nav va duragaylari hosildorligi va tovarliligi (2022-2024 yillar)

Nav va duragay nomi	Hosildorlik, t/ga				Tovarbop hosildorlik		St. ga nisbatan qo'shimcha tovar hosil	
	2022 yil	2023 yil	2024 yil	o'rtac ha	t/ga	%	t/ga	%
Tezpishar nav va duragaylarda								
Mustaqillik-28 (st)	37,6	35,4	41,6	38,2	36,5	95,6		100
Ogastin	40,3	39,4	46,9	42,2	41,4	98,1	4,9	113,4
Lojain F <sub>1</sub> (st)	75,5	53,3	74,6	67,8	63,9	94,2		100
Tomsk F <sub>1</sub>	101,4	99,5	128,5	109,8	108,9	99,2	45,0	170,5
Bobcat F <sub>1</sub>	92,1	86,8	103,7	94,2	93,0	98,7	29,1	145,5
Seraj F <sub>1</sub>	89,6	82,9	97,5	90,0	87,8	97,6	23,9	137,5
EKF <sub>05</sub>	2,65	2,67	1,96					
S <sub>x</sub> (%)	1,11	1,21	1,07					
O'rtatezpishar nav va duragaylarda								
Rio-grande(st)	39,7	39,2	45,9	41,6	40,4	97,1		100
Volgogradskiy 5/95	29,3	24,4	30,9	28,2	24,6	87,2	-15,8	60,9
Red stone	44,4	42,1	50,3	45,6	44,9	98,4	4,5	111,1
Yusupov	35,8	29,8	37,6	34,4	31,9	92,6	-8,5	78,8
Vostok	32,5	26,4	33,8	30,9	27,6	89,2	-12,8	68,2
BT 1019 F <sub>1</sub> (st)	16,3	10,9	15,4	14,2	11,6	81,6		100
Terra cotta F <sub>1</sub>	32,0	32,5	37,5	34,0	33,0	97,2	19,8	284,9
Wolverine F <sub>1</sub>	37,7	36,5	43,1	39,1	38,4	98,1	24,9	330,7
EKF <sub>05</sub>	1,28	1,29	2,24					
S <sub>x</sub> (%)	0,85	1,75	1,44					
O'rtapishar nav va duragaylarda								
Floradade (st)	43,1	36,2	45,5	41,6	40,2	96,7		100
Campbell	40,4	33,8	42,8	39,0	36,7	94,2	-3,5	91,4
N2274 F <sub>1</sub> (st)	38,0	28,9	38,1	35,0	33,7	96,2		100
Pink trind F <sub>1</sub>	43,2	41,0	49,0	44,4	43,2	97,2	9,5	128,1
EKF <sub>05</sub>	0,86	1,17	1,86					
S <sub>x</sub> (%)	0,94	1,19	2,23					

Tahlillarga ko'ra, paykalning fotosintetik potentsiali va hosildorlik orasidagi korrelyatsiya koeffitsiyenti  $r=0,815$  ( $R^2=0,6634$ ) ga teng bo'lib, yuqori darajaga yaqin ijobiy bog'lanish mavjudligini qayd etildi (1-rasm). Yillar bo'yicha hosildorlik tahlil qilinganda 2022 yilda navlar va takrorlar bo'yicha hosildorlik o'rtacha bo'lib, gektaridan 16,1 dan 102,6 tonnagacha o'zgarib, o'rtacha 16,3-

101,4 t/ga ni tashkil etdi. 2023 yilda hosildorlik nisbatan past bo‘lib, 9,2-101,8 t/ga, o‘rtacha 10,9-99,5 t/ga ni tashkil qildi. 2024 yilda esa hosildorlik eng yuqori bo‘lib, nav va duragaylar va takrorlar bo‘yicha 10,5 dan 130,7 tonnagacha, o‘rtacha 12,8-128,4 t/ga ni ta‘minladi.

Ajratilgan tezpishar nav va duragaylari dastlabki 6 ta terim bilan (7-avgustgacha) umumiy hosilning 71,8-85,9% i terib olish imkonini berdi. O‘rtatezpishar – Red stone, Wolverine F<sub>1</sub>, o‘rtapishar - Floradade, Pink trind F<sub>1</sub> nav va duragaylarida esa hosilning 78,3-83,1% i terib olingani qayd etilgan. Eng ko‘p quruq modda (6,1-7,4%), qand (4,6-6,3%), askorbin kislotasi (18,8-22,6 mg%) Lojain F<sub>1</sub>, Tomsk F<sub>1</sub>, Bobcat F<sub>1</sub>, Seraj F<sub>1</sub>, Red stone, Wolverine F<sub>1</sub>, Floradade, Pink trind F<sub>1</sub> nav va duragaylaridan olindi. Birinchi terimga nisbatan oxirgi terimda hosil tarkibida nitratlar miqdori oshgani bilan tavsiya etilgan meyordan (PDK=80 mg/kg) 3-4 marta kam ekanligi aniqlandi.



**1-rasm. Pomidor nav va duragaylarining fotosintetik potentsialiga bog‘liq holda umumiy hosilning shakllanishi orasidagi korrelyatsiya**

Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobi “Istiqbolli pomidor nav va duragaylarini turli sug‘orish tartibi va o‘g‘itlash meyorlarida o‘rganish” deb nomlanib, unda sug‘orish tartiblarining parametrlari, o‘simlikning o‘shishi va barg sathi shakllanishi, fotosintetik faollik, bargdagi xlorofill miqdori, fotosintez so‘f mahsuldorligi, palak, ildiz va tupning mahsuldorligi, hosildorlik, hosilning biokimyoviy tarkibi va turli sug‘orish tartibi va o‘g‘itlash meyorlarida etishtirishning iqtisodiy samaradorligi keltirilgan.

Turli sug‘orish tartiblarida ajratilgan pomidor nav va duragaylari 3 ta fazalarora davrlar, ya‘ni 1-davr ko‘chat o‘tkazilgach – gullashgacha 0-50 sm tuproq qatlami; 2-davr gullashdan – pishishgacha 0-70 sm; 3-davr pishishdan oxirgi terimgacha 1-100 sm tuproq qatlami namligi bo‘yicha aniqlandi.

Tadqiqotlarni ko'rsatishicha, o'rganilgan sug'orish tartiblari va o'g'itlash meyorlarida ko'chat o'tkazilgandan – gullashgacha bo'lgan davr nav va duragaylarda 19-28 kunni, “gullash–mevalash” davri 10-24 kunni; “mevalash-pishish” davri esa 26-34 kunni tashkil etib, o'suv davri sug'orish tartibi 75-85-85% bo'lganda o'g'itlash meyorlariga bog'liq holda 2-10 kungacha uzaygani qayd etildi. Barcha tanlangan moslanuvchan nav va duragaylar 75-85-85% sug'orish tartibi hamda o'g'itlash 20 t/ga go'ng+N<sub>200</sub>P<sub>160</sub>K<sub>100</sub> kg/ga meyorda birgalikda qo'llanilganda o'simlik baland bo'yli (84,8-91,3 sm), shoxlangan (4,7-6,1 dona), serbargli (46,2-64,3 dona), barg sathili (0,76-0,87 m<sup>2</sup>) o'simliklar shakllanishi kuzatildi.

Sug'orish tartibi va o'g'itlash meyorlarining maydon birligida barg sathi shakllanishiga ijobiy ta'siri o'suv davri boshidan, ya'ni gullash davridan sezilib, sug'orish tartibi 65-75-75% bo'lganda o'g'it meyorlari bo'yicha Red stone navida barg sathi 18,6-22,2 ming m<sup>2</sup> ni, sug'orish tartibi 75-85-85% ushlanganda esa 20,4-23,1 ming m<sup>2</sup> ni tashkil etib, 0,9-1,8 ming m<sup>2</sup> barg sathi ko'p hosil bo'lgani, mevalash davrida bu ko'rsatkichlar ortib, mos ravishda 28,0-32,0 va 29,8-33,3 ming m<sup>2</sup> yoki 1,3-1,8 ming m<sup>2</sup> ziyod, pishish davrida eng yuqori ko'rsatkich kuzatilib, 30,2-33,3 va 31,5-35,1 yoki 1,3-1,6 ming m<sup>2</sup> ziyod hosil bo'lgani, 1-terimdan so'ng kamayib, 29,3-32,4 va 31,1-34,2 ming m<sup>2</sup> shakllangani aniqlandi. Ajratilgan boshqa moslanuvchan Bobcat F<sub>1</sub>, Lojain F<sub>1</sub> va Tomsk F<sub>1</sub> duragaylarida ham yuqoridagi qonuniyatlar kuzatilib, ko'rsatkichlar yuqori ekanligi bilan xarakterlandi.

O'suv davri davomida paykalning fotosintetik potentsiali o'zgarib, Red stone navida 2072,1-3078,3, Bobcat F<sub>1</sub> duragayida 2172,1-3307,7, Lojain F<sub>1</sub> duragayida 2108,2-3450,8 va Tomsk F<sub>1</sub> duragayida 2500-3942,4 ming m<sup>2</sup>/ga x kunni tashkil etdi. Eng yuqori paykalning fotosintetik potentsiali nav va duragaylar bo'yicha 2878,8-3942,8 ming m<sup>2</sup>/ga x kun sug'orish tartibi 75-85-85% bo'lib, o'g'itlar 20 t/ga go'ng+N<sub>200-250</sub>P<sub>160-200</sub>K<sub>100-125</sub> kg/ga meyorda birgalikda solinganda olindi.

Barcha o'rganilgan moslanuvchan nav va duragaylarda, xlorofillning eng yuqori miqdori (445,1-543,2 mg/100 g) va fotosintez sof mahsuldorligi o'simlik pishish davrida (5,2-7,0 g/m<sup>2</sup> sutkada) sug'orish tartibi 75-85-85% da ushlanib, o'g'itlash 20 t/ga go'ng+N<sub>200-250</sub>P<sub>160-200</sub>K<sub>100-125</sub> kg/ga meyorda birgalikda qo'llanilganda kuzatildi. Shunda o'rganilgan nav va duragaylarda baquvvat ildiz tizimi (124-144 g), palak (458-574 g) va mahsuldor tuplar (1093,5-2022,8 g) hamda yirik pishgan mevalar (152,7-329,6 g) hosil qilishi aniqlandi. Istiqbolli pomidor moslanuvchan nav va duragaylaridan sug'orish tartibini 75-85-85% da ushlab, organomineral o'g'itlarni 20 t/ga go'ng+N<sub>200</sub>P<sub>160</sub>K<sub>100</sub> kg/ga meyorda birgalikda qo'llash orqali yuqori barqaror (48,6-88,1 t/ga) yaxshi biokimyoviy tarkibli va sifatli hosil olishini ta'minladi (2-jadval).

Shunda 1 m<sup>3</sup> sug'orish uchun sarflangan suvga hosil chiqimi eng yuqori (5,7-9,7 kg) yoki 1s hosilga sarflangan suv eng kam (10,2-17,5 m<sup>3</sup>) ni tashkil qilib, har gekardan 8,4-9,1 mln.so'm qo'shimcha sof daromad va 6,6-13,5% rentabellik ta'minlangan.

**Turli sug'orish tartibi va o'g'itlash meyorlarida pomidor  
nav(duragay)larining hosildorligi va tovarliligi**

Tajriba variantlari		Hosildorlik, t/ga				Tovarbop hosildorlik		Qo'shimcha hosil			
sug'orish tartibi, %	o'g'it meyori, kg/ga	2022 yil	2023 yil	2024 yil	o'rtacha	t/ga	%	sug'orish bo'yicha		o'g'itlash bo'yicha	
								t/ga	%	t/ga	%
<b>Red stone navida</b>											
65-75-75	N <sub>150</sub> P <sub>120</sub> K <sub>75</sub> (naz.)	37,1	40,3	42,7	40,0	38,0	95,0	-	100,0	-	100,0
	N <sub>200</sub> P <sub>160</sub> K <sub>100</sub>	40,4	43,6	46,0	43,3	41,3	95,4	-	100,0	3,3	108,3
	20 t/ga go'ng + N <sub>150</sub> P <sub>120</sub> K <sub>75</sub>	42,2	45,4	47,8	45,1	43,2	95,7	-	100,0	5,1	112,8
	20 t/ga go'ng + N <sub>200</sub> P <sub>160</sub> K <sub>100</sub>	44,0	47,2	49,6	46,9	45,2	96,3	-	100,0	6,9	117,3
	20 t/ga go'ng + N <sub>250</sub> P <sub>200</sub> K <sub>125</sub>	45,8	48,0	50,3	48,0	46,3	96,5	-	100,0	8,0	120,0
75-85-85	N <sub>150</sub> P <sub>120</sub> K <sub>75</sub> (naz.)	39,2	42,4	44,8	42,1	40,2	95,4	2,1	105,3	0	100,0
	N <sub>200</sub> P <sub>160</sub> K <sub>100</sub>	42,0	45,2	47,6	44,9	43,0	95,8	1,6	103,7	2,8	106,7
	20 t/ga go'ng + N <sub>150</sub> P <sub>120</sub> K <sub>75</sub>	44,9	48,1	50,5	47,8	45,8	95,9	2,7	106,0	5,7	113,5
	20 t/ga go'ng + N <sub>200</sub> P <sub>160</sub> K <sub>100</sub>	45,7	48,9	51,3	48,6	46,9	96,4	1,7	103,6	6,5	115,4
	20 t/ga go'ng + N <sub>250</sub> P <sub>200</sub> K <sub>125</sub>	46,1	49,3	51,7	49,0	47,4	96,8	1,0	102,1	6,9	116,4
EKF <sub>05</sub>		1,27	1,12	1,40							
S <sub>x̄</sub> (%)		2,38	2,07	2,23							
<b>Bobcat F<sub>1</sub> duragayida</b>											
65-75-75	N <sub>150</sub> P <sub>120</sub> K <sub>75</sub> (naz.)	64,1	69,9	73,8	69,3	67,3	97,1	-	100,0	-	100,0
	N <sub>200</sub> P <sub>160</sub> K <sub>100</sub>	65,6	71,4	75,3	70,8	69,0	97,4	-	100,0	1,5	102,2
	20 t/ga go'ng + N <sub>150</sub> P <sub>120</sub> K <sub>75</sub>	67,8	73,6	77,5	73,0	71,4	97,8	-	100,0	3,7	105,3
	20 t/ga go'ng + N <sub>200</sub> P <sub>160</sub> K <sub>100</sub>	69,7	75,5	79,4	74,9	73,7	98,4	-	100,0	5,6	108,1
	20 t/ga go'ng + N <sub>250</sub> P <sub>200</sub> K <sub>125</sub>	71,4	77,2	81,1	76,6	75,5	98,6	-	100,0	7,3	110,5
75-85-85	N <sub>150</sub> P <sub>120</sub> K <sub>75</sub> (naz.)	65,8	71,6	75,5	71,0	69,2	97,5	1,7	102,5	0	100,0
	N <sub>200</sub> P <sub>160</sub> K <sub>100</sub>	67,2	73,0	76,9	72,4	70,9	97,9	1,6	102,3	1,4	102,0
	20 t/ga go'ng + N <sub>150</sub> P <sub>120</sub> K <sub>75</sub>	69,5	75,3	79,2	74,7	73,3	98,1	1,7	102,3	3,7	105,2
	20 t/ga go'ng + N <sub>200</sub> P <sub>160</sub> K <sub>100</sub>	72,7	78,5	82,4	77,9	76,7	98,5	3	104,0	6,9	109,7
	20 t/ga go'ng + N <sub>250</sub> P <sub>200</sub> K <sub>125</sub>	73,1	78,9	82,8	78,3	77,3	98,7	1,7	102,2	7,3	110,3
EKF <sub>05</sub>		1,78	1,10	1,30							
S <sub>x̄</sub> (%)		1,82	1,27	1,32							
<b>Lojain F<sub>1</sub> duragayida</b>											
65-75-75	N <sub>150</sub> P <sub>120</sub> K <sub>75</sub> (naz.)	52,9	57,2	49,4	53,2	51,7	97,1	-	100,0	-	100,0
	N <sub>200</sub> P <sub>160</sub> K <sub>100</sub>	55,7	60,0	52,2	56,0	54,6	97,5	-	100,0	2,8	105,3
	20 t/ga go'ng + N <sub>150</sub> P <sub>120</sub> K <sub>75</sub>	58,1	62,4	54,6	58,4	57,1	97,8	-	100,0	5,2	109,8

